giyasi janr va g‘oyaviy-tematik jihatdan boyib bordi. Jahon adabiyoti namunalari asosida dramatik asarlar yaratildi. Xulosa qilib aytganda, 1970–1980-yillar dramaturgiyasi milliy teatr san’ati rivojlanishida asosiy poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Нурмухаммедов М., Баҳадирова С., Мамбетниязов Т., Нийетуллайев С., Насруллаев Ә. Қарақалпақ совет әдебияты. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1979, 172–178-бетлер.

(2). Алланазаров Т. Театр ҳәм драматургия. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1982, 75-бет.

(3). Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг адабиёт ва санъат масалалари бўйича қарорлари тўплами (1970–1985 йиллар). Тошкент, «Ўзбекистон», 1986, 112-бет.

(4). Искусство солнечного Приаралья. К Дням литературы и искусства Каракалпакской АССР в Москве. “Советская культура”, 1980, 14 октября. № 83, с. 2.

(5). Қайыпбергенов Т. Қарақалпақ совет әдебиятының қайта қурыў дәўириндеги жағдайы ҳәм ўазыйпалары (Қарақалпақстан Жазыўшылар союзының IV пленумындағы доклад). “Әмиўдәрья”, Нөкис, 1987, № 7, 12–21-бетлер.

(6). Қайыпбергенов Т. КПСС XXVI съезди ҳәм Қарақалпақстан жазыўшыларының ўазыйпалары. “Әмиўдәрья”, Нөкис, 1981, № 7, 8–15-бетлер.

(7). Қайыпбергенов Т. Қарақалпақ совет әдебиятының актуаль мәселелери. “Әмиўдәрья”, Нөкис, 1983, № 10, 31–38-бетлер.

Qosimova Shahodat (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi; shakhodat84@gmail.com)

KIM CHUXENING “KICHIK ZAMIN YOVUZLARI” ROMANIDA AYOL VA TEATR MUAMMOSI

Annotatsiya. *XX asr birinchi yarmi koreys jamiyatida barcha sohalar qatori adabiyot bilan birga teatr san’ati ham rivojlanishning yangi bosqichiga kirdi. Ma’lumki, koreys teatri ildizlari moziyga borib taqaladi. Dastlab, koreys milliy teatrida faqat ko‘cha aktyorlari–kvandelar barabanlar jo‘rligida har bir personajga mos niqob ostida rollarni ijro etganlar. Pxansorilar uchun xalq og‘zaki ijodidan kelayotgan qissalar manba bo‘lib xizmat qilgan. XX asr boshida mamlakatda zamonaviy teatr binolari qurildi, avvallari katta hovli, bog‘ va ochiq maydonda sahnalashtirilgan asarlar uchun bezaklar o‘ylab topildi. Teatr maktablariga asos solindi, rollar taqsimlandi. Birinchi ayol aktrisalar yetishib chiqdi. Albatta, ular kisenlar edi.*

Mazkur maqolada yozuvchi Kim Chuxe qalamiga mansub “Kichik zamin yovuzlari” romanida yoritilgan kisenlar, ularning hayoti, kiban maktabi, ayol va teatr masalalari tahlil qilindi. Roman kitobxonda ham tarixiy voqelik, ham koreys xalqining milliy teatri haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. Roman tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy milliy koreys teatrlari uchun tanlangan birinchi aktrisalar, ular orasida yuzaga kelgan raqobat, teatr rivojiga o‘zining chiroyli rollari bilan hissa qo‘shgan kisenlar obrazi transformatsiyaga uchragan. Asarda kisenlar obrazi salmoqli o‘rin egallaydi.

Kalit so‘zlar: *kisen, kurtizan, teatr, Chunxyan, qo‘shiq, Sim Chxon, Yashma, Liliya, Hilol, Dani, rol, Choson, Grant-Oriental.*

Косимова Шаходат (Ташкентский государственный университет востоковедения, независимый исследователь; shakhodat84@gmail.com)

ПРОБЛЕМА ЖЕНЩИНЫ И ТЕАТРА В РОМАНЕ КИМ ЧУХЕ «ЗВЕРИ МАЛОЙ ЗЕМЛИ»

Аннотация. *В первой половине XX века корейское общество вступило в новый этап развития во всех сферах, в том числе в литературе и театральном искусстве. Как известно, корейский театр своими корнями уходит в глубокую древность. Изначально в корейском национальном театре уличные актёры–квандэ–исполняли различные роли под аккомпанемент барабанов, используя маски, соответствующие образам персонажей. Источником сюжетов для пхансори служили повествования, восходящие к устному народному творчеству. В начале XX века в стране были построены современные театральные здания, разработаны декорации для постановок, которые прежде проводились в больших дворах, садах и на открытых площадках. Были основаны театральные школы, началось систематическое распределение ролей. Появились первые женщины-актрисы, которыми стали представительницы кисэн.*

В данной статье анализируются образы кисэн, особенности их жизни и деятельности, школа кибан, а также вопросы, связанные с положением женщины и развитием театра, представленные в романе Ким Чухе «Звери малой земли». Роман расширяет представления читателя как об исторической действительности, так и о национальном театре корейского народа. Анализ романа

показывает трансформацию образов первых актрис, отобранных для современных корейских национальных театров, а также особенности конкуренции между ними. Особое внимание уделяется образам кисэн, которые внесли значительный вклад в развитие театрального искусства посредством исполнения различных ролей. Образы кисэн занимают в произведении значительное место и являются важным элементом раскрытия проблематики женщины и театра.

Ключевые слова: *кисэн, куртизанка, театр, Чхунхян, песня, Сим Чхон, Яшма, Лилия, Луна, Дани, роль, Чосон, Грант-Ориентал.*

Qosimova Shahodat (Freelance researcher at the Higher School of Korean Studies, Tashkent State University of Oriental Studies; e-mail:shakhodat84@gmail.com)

THE ISSUE OF WOMEN AND THEATER IN KIM JUHEA'S NOVEL "BEATS OF A LITTLE LAND"

Annotation. *In the first half of the twentieth century, Korean society entered a new stage of development, a transformation that extended to all spheres of social and cultural life, including literature and the performing arts. As is well known, the roots of Korean theatre can be traced back to earlier historical periods. In traditional Korean theatre, masked roles corresponding to individual characters were initially performed by itinerant or street performers known as kwandae, accompanied by drums and other traditional instruments. The narrative sources of pansori were largely derived from Korean folklore and traditional tales. At the beginning of the twentieth century, modern theatre buildings began to be constructed in Korea, while stage sets and theatrical scenery were introduced for performances that had previously been staged in large courtyards, gardens, and other open spaces. Theatre schools were established, theatrical roles became more systematically differentiated, and women began to appear on the modern Korean stage. The first female performers were predominantly gisaeng, whose artistic education and performance experience enabled them to enter the emerging theatrical sphere. This article examines the representation of female actresses, their lives and professional training in giban, as well as the role and status of women in the theatrical sphere as depicted in Kim Juhye's novel Beasts of a Little Land. The novel provides a broader understanding of both the historical realities of the period and the development of Korean national theatre. An analysis of the novel demonstrates the transformation of the representations of the first actresses selected to perform in modern Korean national theatres, the competition that emerged among them, and the images of female performers whose artistic achievements and memorable roles contributed to the development of Korean theatre. The representation of actresses occupies a significant place in the novel and constitutes an important dimension of its engagement with the history of Korean performing arts, gender, and cultural transformation.*

Key words: *kiseng, courtesan, teatr, Chunhyan, song, Sim Chxon, Yashma, Liliya, Hilol, Dani, role, Choson, Grant-Oriental.*

Kirish. Birinchi koreys teatrlarida ijro etilgan sahna asarlarini shomonlik odatlaridan farqlash uchun o'yinlarga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, Koguryo (Koryo) davrida bu o'yinlar "Qo'g'irchoq o'yini", Silla davrida "Ogi" yoki "Chxoenmu" deb atalgan. Shuini ta'kidlash joizki, bugungi kunga qadar Koguryo davriga tegishli ayrim, xususan, "Nevonsonga", "Yenyanga", "Menchuga" kabi nasriy asarlar teatrlashtirilgan sahna asarlari tarzida yetib kelgan.

Choson sulolasining birinchi davrida pxansori – musiqali drama janri xalq qo'shiqlari asosida yuzaga keldi. Sahna asarlari mohir masxaraboz-aktyorlar, ya'ni, kvandelar hamda sozandalar tomonidan ijro etilgan. Bu satiraga yo'g'rilgan xalq san'ati edi. Ilk pxansorilarda 12ta sahna ko'rinishlari mavjud bo'lgan, ular quyidagilar: 1) "Chxunxyan haqida qissa"; 2) "Sim Chhxon haqida qissa"; 3) "Xinbu haqida qissa"; 4) "Quyonning sarguzashtlari" qissasi; 5) "Tustovuq voqeasi" qissasi; 6) "Pebichjan qo'shig'i"; 7) "Eshakning o'jarligi haqida qo'shiq"; 8) "Xo'rlanganlar haqida qo'shiq"; 9) "Xvayonning hayot yo'li"; 10) "Dovondagi olxo'ri gullari haqida qo'shiq"; 11) "Musuri" (saroydagi quyi martabali xizmatkor qiz); 12) "Suv saroyi haqida qo'shiq".

Sin Chexe ularni avval oltitaga qisqartirdi, bugungi kunda ular soni beshtani tashkil etadi: 1) "Chxunxyan haqida qissa"; 2) "Sim Chhxon haqida qissa"; 3) "Qovoq haqida qo'shiq"; 4) "Quyonning sarguzashtlari" qissasi; 5) "Karuchjigi haqida qo'shiq".

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy-adabiy tahlil metodidan mumtoz davr koreys nasrida kisenlar obrazi yozuvchi romanidagi kisenlar obrazlari bilan qiyoslashda qo'llanildi; struktural-tahliliy metod – roman sujeti, obrazlari, portret yaratish tizimini aniqlashda foydalanildi.

XX asrning birinchi o'n yilligida chxangik (pxansori ijrosidagi koreys milly musiqali spektakli) keng rivojlandi. Chxangik – pxansori janriga asoslangan dramatik sahna asarining bir turi. Dastlabki chxangik-

larda musiqa birinchi darajali hisoblangan. Pxansorida qo‘shiqchi ham hikoya qiluvchi, ham raqsga tushuvchi bo‘lgan. Ya’ni, pxansoridagi bir nechta qahramon rolini bitta qo‘shiqchining o‘zi rollarga mos niqobni almashtirish orqali ijro etgan. Shuningdek, pxansorida musiqa asbobi – bitta barabanning o‘zi yetarli bo‘lgan, chxangikda esa orkestr o‘ynagan. Chxangik bir nechta qo‘shiqchilar tomonidan ijro etilgan. Bu ‘zamonaviy koreys teatri rivojiga ulkan hissa qo‘shgan, g‘arb teatridan xabardor bo‘lgan Sin Chexe tomonidan kiritilgan. Muallif zamonaviy teatrda rollarni taqsimlash ayol va bolalar teatrini ochish, teatr maktablarining mavqeyini oshirish ustida ish olib borgan.

Zamonaviy teatr sahnalarida ilk bor aynan kisenlar qo‘shiq kuylaganlar, raqsga tushganlar, birinchi ayol rollarni ham kisenlar ijro etganlar. Chxangikning rivojiga mamlakatga kirib kelgan xitoy opera truppalari ta’sir ko‘rsatgan. Ilk chxangiklar uchun esa pxansorilar manba bo‘lib xizmat qilgan. Vaqt o‘tishi bilan chxangiklar juda ham mashhur bo‘ldi, shu sababli 1930-yillardan boshlab mamlakatda katta-katta teatr binolari qad rostladi, teatr sahnalarida xalq eposlari, ya’ni, “Chxunyan-ga”, Shimchxon-ga”, “Xinbuga”, “Txokki txaren”, “Jankkitxaren”, “Pebichjan”, “Ongojip txaren”, “Pengansve txaren”, “Xvaendo”, “Kannin mexva txaren”, “Musugi”, “Sugen nanchji”lar chxangik talablari asosida ijro etildi.

Zamonaviy koreys romanchiligi rivojiga ulkan hissa qo‘shayotgan Kim Chuxening “Kichik zamin yovuzlari” romanida ham zamonaviy koreys teatri, chxangik, birinchi sahna asarlari, kisenlar ijro etgan rollar masalasi chuqur yoritilgan. XX asrning birinchi yarmi koreys jamiyatida sodir bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy o‘zgarishlar bilan birga adabiyot va san’atning yangi rivojlanish yo‘liga o‘tganligi tarixiy haqiqat bilan uyg‘unlikda tasvirlangan.

Yozuvchining mahorati shundaki, roman voqealarini bir nechta hikoyachi nuqtai nazaridan bayon etish orqali kisenlar, ozodlik uchun kurash yo‘liga kirgan vatanparvarlar, mamlakatdagi parokandalikdan foydalanib, o‘z manfaati yo‘lida boylik orttirayotgan davr kishisi, olis qishloqdan kelgan, zo‘ravonlik orqali kun kechirishga intilayotgan yoshlar kabi har bir badiiy obrazni o‘ziga xos fazilatlari bilan yoritadi. Bu romanning hayotiy, samimiy, haqqoniy chiqishiga turtki bergan.

Roman sujetini harakatga keltiruvchi markaziy obraz – bu kisenlar obrazi bo‘lib, ularning zamonaviy milliy teatr rivojiga qo‘shgan hissasi ham keng planda yoritilgan. Kisenlar romanning ayrim lavhalarida oiladagi to‘ng‘ich farzand, kiban maltablarida namunali o‘quvchi, teatr sahnalarida iqtidorli aktrisa, ishonchli do‘st, ozodlik uchun kurashda faol ishtirokchi obrazlarida namoyon bo‘ladi. Jumladan, roman matnidagi mana bu satrlarda kisenlarning ilk bor chxangik ijro etganliklari oydinlashadi: “Ertaga Liliya, Hilol va mening “Choson” teatrida chiqishimiz bor” [8;248-b.].

Roman bosh qahramoni Yashma, Hilol va Liliyalar kiban maktabida olingan ta’limdan so‘ng, chxangik ijro eta boshladilar. Kiban maktabida qo‘shiq aytish, raqsga tushish san’atidan boxabar bo‘lish bilan birga, tashqi ko‘rinishlari chiroyli bo‘lgan bu kisenlar tomoshabinlarning olqishiga sazovor bo‘ldilar. Tajribali ustozlar bergan saboqlarga ko‘ra, qizlar sahna madaniyatidan ham boxabar edilar. Qizlar saboq olgan maktab saviyasi, maktabni boshqarayotgan tajribali kurtizanka, kisenlarning alohida iqtidorini ajratib ko‘rsatish uchun muallif yetti yuzdan ortiq kisenlar tanlovda ishtirok etish lavhasini kiritadi.

Har uchta qahramonning Seulda mashhur “Choson” teatrida chiqishlari hamda chxangikni ijro etishlari haqqoniy tasvirlangan. Sahnaga birinchi bo‘lib go‘zalligi bilan hammaning e’tiboriga tushgan Hilolning an’anaviy yelpig‘ich raqsini ijro etishi tasvirida boshqa raqqosalar fonida, atirgullar ichida uning iqtidori ajratib ko‘rsatilmaydi. Zero, muallif Hilolning keyingi taqdiri teatr bilan bog‘liq emasligiga oldindan ishora qiladi.

Yozuvchi ikkinchi qahramon Liliyaning chiqishida milliy teatrga ta’sir ko‘rsatgan g‘arb teatri elementlariga alohida e’tibor qaratadi: “Sahnaning o‘rtasiga fortepiano qo‘yilgan, orqa etagi uzun, old etagi qisqa libos kiygan hamda sochlari orqasiga silliq taralgan boshlovchi mashshoq uni kutib turardi. Liliya zalga o‘girilib, o‘zining raqs usulida yozilgan musiqa asarini ijro etdi. Ovoz oxirgi qatorga qadar yetib bordi, har bir tinglovchini tanish musiqa allalay boshlaydi” [8;257-b.].

Qo‘shiq oxiriga yetdi, tomoshabinlar o‘rinlaridan turib, uni olqishladilar, hatto sahna ortidan yana tomoshabinlar oldiga qayta chiqishga, ta’zim bajo keltirishga to‘g‘ri keldi. Liliyaning chiqishida yozuvchi uning xushovozligini ajratib ko‘rsatadi. Muallif Yashmaning chiqishidan oldin boshqa kisenlar iqtidoriga alohida e’tibor qaratishi bejizga emas, kitobxonni keyin nima bo‘lar ekan, degan savollar girdobiga qo‘yadi. Yozuvchi, kutilmaganda, Hilol va Liliyadan farqli ravishda, Yashmaning tashqi qiyofasi, u kiygan libosga urg‘u beradi: “Yashma qora ko‘ylak hamda ko‘krak qafasiga qadar qamar bilan tortilgan to‘q qizil rangli kamzul kiygandi. Bo‘yin orqasiga to‘plangan sochlar ustiga oldinlari harbiylar boshida ko‘rish mumkin bo‘lgan kemg qora shlapa va otning yolidan qizil popuk qo‘ndirilgan. Erkaklar bosh kiyimining ayol obrazi hamda turmagi bilan kutilmaganda uyqashishi Yashmaning chiroyini yanada ochgan. Yashma har bir

qo‘lida uzunligi, taxminan, bir cho‘zim (0,5 metr) keladigan ingichka yarim oy shaklidagi qilichlarni mahkam ushlab turardi” [8;258-b.].

Yashma, avval, baraban, keyin, fleyta jo‘rligida qilichlar raqsini ijro etdi, o‘zining chaqqon harakatlari, tezligi bilan tomoshabinlarni lol qoldirgan Yashma, yelpig‘ich bilan raqsga tushgan qizlardan farqli ravishda uning nigohi juda ham jiddiy tusga kirdi. Bu tomoshabinlarning hayratiga sabab bo‘ldi, chunki qo‘ldagi sovuq qurol ortiqcha harakatga yo‘l qoymasdi. Aslida, bu raqs Yashma xarakteriga mos tanlangan edi. Yozuvchi uning hayotda ham ko‘p narsalarga jiddiy yondashishi, atrofdagilarning munosabatlariga javoban sovuqqon qarashlarini mana shu raqs orqali ochib beradi.

Muallif Yashmaning o‘ziga xos chiqish lavhasidan so‘ng, har uchta qahramon va ularning rahbarlari Danini teatr xo‘jayini bilan tanishtirish motivini kiritadi. Tanishtirish motivida Yashmaning iqtidoriga alohida urg‘u berilishi bilan birga, mamlakatda zamonaviy teatrlarning rivojlanayotganligi ayon bo‘ladi. Bu teatr xo‘jayini nutqida anglashiladi: “Men “Choson” teatrining xo‘jayini va ish yurituvchisiman. Yashma xonim, Siz bugungi chiqishingiz bilan barchamizda unutilmas taassurot qoldirdingiz. Ismingizni dasturda ko‘rdim. Bugungi tunga qadar kurtizankalar raqsi meni bunchalar hayajonga solmagan edi, bu so‘zlarim uchun kechiring. ...Mana, men Sizni bizning truppaga a’zo bo‘lishga chorlashga ahd qildim. Biz har kuni konsert beramiz. Fojialar, komediyalar, vartyelar (yengil janrli estrada teatri), mahalliy musiqali dramalar... Nima bo‘lsa hammasini sahnalashtiramiz. Bizda Seulning eng zo‘r aktor va akrisalari chiqishadi”[8;263 b].

Mazkur chiqishlarda muallif Hilolni umumiy fonda ajratib ko‘rsatmagini kabi, u teatrga taklif qilinmaydi. Liliya va Yashmaning chiqishlarini tomoshabinlar olqishida ko‘rsatgan yozuvchi ularning teatrga doimiy chiqishlar uchun tanlab olinganligini ta’kidlaydi. Bu qizlarning hayotida eng unutilmas lahzalar, quvonchli kecha bo‘lib qoldi. Kiban maktabi xo‘jayini Dani esa, bir tomondan, o‘z o‘quvchilari erishgan yutuqlardan faxrlansa, ikkinchi tomondan, o‘zining e’tibordan chetda qolayotgani uchun biroz taraddudlandi. Shu sababli u teatr xo‘jayinining birgalikda kechlik qilish haqidagi taklifini rad etdi.

Muallif qizlarning uyiga qaytish lavhasida qizlarning o‘tmishini – ularning ilk bor Seulga kelgan kunlari, dastavval, hammasi bitta riksha xizmatidan foydalanganliklari, egnida faqat bitta libos bo‘lganligini monolog-xotirada yodga soladi. Endi ular ikkita riksha xizmatidan foqdalanishadi, chunki Yashma va Liliya o‘zlari mustaqil ravishda pul ishlab topa boshlagan edilar. Shu bilan birga, muallif Yashma va Liliyaning bitta, Dani va Hilolning boshqa riksha xizmatidan foydalanishlarida, taqdirlari ham ayri-ayri ekanligiga oldindan ishora qiladi.

Avval, “Choson” teatriga qabul qilingan qizlar chxangik ijro etgan bo‘lsalar, keyinchalik, ularga pxansorilardagi rollar berildi. Yozuvchi mamlakatning “Choson” teatrida “Chxunyan-ga” xaftaligi o‘tkazilishiga urg‘u beradi. Yashma yuqori tabaqa vakili o‘g‘lini sevib qolgan, bosh qahramon kisen qiz Chxunyan rolini ijro etardi. Butun Seul shahri bo‘ylab yangi sahnalashtirilgan asar ovoza bo‘ldi. Bosh rolni maromiga yetkazib o‘ynayotgan Yashma haqida gazetalarda ketma-ket maqolalar chop etildi. O‘zining fotosurati bilan birgalikda chop etilgan maqola qizga qanot bag‘ishladi. O‘zining ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra, bu rol Yashmaga mos keladi.

Roman qahramonlari Liliya hamda Yashma o‘rtasida o‘zaro raqobat yuzaga keldi. Bu rollar taqsimoti bilan bog‘liq. Yozuvchi Liliyaga “Chxunyayn-ga” asarida kichik rolni berish orqali ular o‘rtasidagi ziddiyatni kuchaytiradi. Olis qishloqdan kelgan, o‘z ixtiyoriga ko‘ra, kisenlikni tanlagan Yashma avval boshdan kisenning qizi, maktabda ta’limni erta boshlagan Liliyaga qaraganda omadli bo‘ldi. Shu sababli Liliya batamom aloqani uzish hamda o‘zining omadini sinab ko‘rish uchun yashirincha ish ko‘rdi. “Grant-Oriental” teatri xo‘jayini taklifiga ko‘ra, ish joyini o‘zgartirdi.

Yozuvchi Liliyada o‘ziga bo‘lgan ishonchni orttirish uchun yangi ish joyi xo‘jayinining unga ko‘rsatgan xushomadini keltiradi: “Siz raqs usulida yozilgan musiqa asarini ijro etdingiz, sizning ovozingizda shunaqa chuqur hissiyot mavjud edi. Men, hatto sizning yoshingiz o‘n beshda ekanligiga ishonmadim ham... Shu lahzadan boshlab, men Sizning “Grant-Oriental”da chiqishlaringizni orzu qildim. Shu kunlarda “Choson” teatri bilan imzologan shartnomangizdan xabardor bo‘ldim... u yerda Sizni iqtidoringizga mos kelmaydigan rolni o‘ynashga majbur qilishibdi...” [8;306-b.].

“Grant-Oriental” teatri xo‘jayini Liliyaga “Simchxon-ga” pxansorida bosh rolni o‘ynashni taklif qildi. “Simchxon-ga haqida qissa”ning mazmun-mohiyatini to‘ng‘ich farzandning ota-onaga bo‘lgan hurmat-ehtiromi xyo kategoriyasi tashkil etadi. Yozuvchi Liliyaga bu rolni berar ekan, uning shahar hayoti, shon-shuhratlarga berilib ketganligi, yaqin dugonasiga nisbatan qalbini chulg‘ab olgan hasad, o‘z onasi holidan xabar olmay qo‘yganligi, farzandning ota-onasi oldidagi burch-ma’suliyatiga tagmatnda ishora qiladi.

Natijalar va muhokama. Roman sujeti uch chiziqli. Birinchi chiziq Yashma Liliyaning kiban maktabida o‘tgan davrlari tasvirlangan. Xronotop – 1918-yil, Koreya, Pxenyan shahri. Sujetning bu chizig‘ida

yozuvchi kisenlar hayoti, Yashma va Liliyaning bolalik va o‘smirlik yillari, kiban maktabi, maktabga boshchilik qilayotgan tajribali kurtizanlar, ularning yashirin tarzda siyosiy jarayonlardagi ishtiroki tasvirlangan. Muallif mazkur sujet chizig‘ida kisenlarga qo‘yiladigan talablarni kiban maktabi faoliyatida ochib beradi. Tasodifan Hilol bilan bo‘lib o‘tgan ko‘ngilsiz voqea sabab, ular yashash joylarini Seulga ko‘chirib o‘tkazdilar.

Asarning ikkinchi chizig‘ida Yashma, Hilol va Liliyaning zamonaviy teatrlarda birinchi chiqishlari, kiban maktabida o‘rgangan qo‘shiqchilik hamda raqsga tushish san’ati ularning keyingi hayotini belgilab berganligi tasvirlanadi. Muallif koreys milliy teatrining, bir tomondan, mahalliy madaniyat, ikkinchi tomondan, g‘arb madaniyati ta’sirida o‘zgarishlarga uchragani, mazkur davrda teatr san’atining rivojlanishi uchun turtki bergan ichki va tashqi omillar, teatrlar o‘rtasida yuzaga kelgan raqobat haqida hikoya qiladi, xronotop – 1925–1937-yillar, Koreya, Seul shahri.

Uchinchi chiziq mamlakatning qisqa muddatli ozodlik yillari, fuqarolar urushi davri, urushdan keyingi qatag‘onlik siyosati, kisenlar duch kelgan jiddiy muammolar, teatr san’ati inqirozi, qashshoqlik, yaqinlarini yo‘qotganligi sababli Seuldan Pusanga ko‘chib o‘tgan Yashma, turmushi buzilgan, avval, ichkilikka mukkasidan berilib ketgan, so‘ng opasi Hilolning oldiga – Amerikaga ketgan Liliyalar hayotining so‘nggi damlari tasvirlangan. Xronotop – 1964 yil, Koreya, Chejudo oroli, Amerika.

Xulosa va takliflar. Romanda kisenlar obrazi romanning yadrosi hisoblanadi, har bir qahramon bilan bog‘liq voqea-hodisa kisen obrazi bilan uzviy bog‘lanib ketadi. Ayrim lavhalarda roman qahramonlari qarashlari kisenlar fikri bilan uyg‘un kelsa, ayrim lavhalarda ziddiyat yuzaga keladi, qarama-qarshilikda millatning arxaistlari hamda ma’rifatparvarlari qiyofasi gavdalanadi. Muallif o‘zining estetik qarashlarini, davr manzarasini mana shu ziddiyat zamiriga singdiradi.

Romanda mamlakatda keng quloch yoygan teatr san’ati, teatrlarda ijro etilayotgan rollar, millat ongini uyg‘otishga qaratilgan ma’rifatparvarlik harakatlari, xalq savodxonligini oshirishda matbuotning o‘rni, mumtoz davr asarlarini nafaqat xangilga o‘girish, balki sahnalashtirish orqali xalqning o‘zligini yodga solish kabi masalalar ishonarli tasvirlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Кон Ги Джунг и др. Янгбаны-правящее сословие в традиционном обществе Кореи периода Чосон (XV–до начала XX вв.). Сеул, Корея, 2013, 164 с.

(2). Klassik koreys nasri antologiyasi. Tuzuvchilar: U.Saydazimova, Choi So Yong va boshq. Toshkent, “Istiqlol”, 2013, 504-bet.

(3). Рифтина Б.Л., Концевич Л.Р., Ткачева М.В. Сборник. Москва, 1975, 896 с.

(4). “용재총화해제” (김두종, “국역 대동야승” 1, 민족문화추진회, 1971, 402. 쪽.

(5). “용재총화해설” (성락훈, “오늘의 사상대전집” 8, 동화출판공사, 1972, 621. 쪽.

(6). 조선 전기의 문・학자인 성현 (成俔) 의 수필집. 활자본. 3권 3책. 1525년 (중종 20) 에 경주.362. 쪽.

(7). 김현룡. “옛 고전에서 전해오는 조선왕조 500년 유머”, 대한민국 자유문학사, 2003, 462. 쪽.

(8). 김주혜. “작은 땅의 야수들”. 경기도: 다산북스, 2022, 603.쪽.

(9). 성현. 용재총화. 지식을 만드는 지식, 2014, 778.쪽.

(10). 투데이충남 (https://www.todaychungnam.net) 성주 그리고 성주 기생 성산월

Usenova Qizlargul Ubaydullaevna (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti “Amaliy filologiya” kafedrasi dotsenti v.v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);
email: qizlargulusenova@gmail.com)

QORAQALPOQ BOLALAR FOLKLORIDA SINONIMLARNING QO‘LLANILISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qoraqalpoq bolalar folklori tilida sinonim so‘zlarning qo‘llanilishi, ularning bolaning yoshga bog‘liq leksikonida shakllanishi, sinonimlarning bolaning tafakkuriga ta’sir ko‘rsatishi, uning jismoniy va aqliy rivojlanishiga, so‘z boyligini takomillashtirishdagi xizmati masalasi o‘rganildi. Qoraqalpoq bolalar folklori tilidagi sinonimlar ma’nodosh yoki ideografik, emotsional-ekspressiv va stilistik sinonimlarga bo‘lib ko‘rib chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *bolalar folklori, bolaning fikrlash qobiliyati, lug‘at tarkibi, sinonim, sinonimlarning leksik-semantik va stilistik xususiyatlari.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СИНОНИМОВ В КАРАКАЛПАКСКОМ ДЕТСКОМ ФОЛЬКЛОРЕ

Аннотация. *В данной статье рассматривается использование синонимов в языке каракалпакского детского фольклора, их формирование в возрастном лексиконе ребенка, влияние синонимов на мышление ребенка, их роль в физическом и умственном развитии, а также в совершенст-*